

MAHALLA – TARBIYA O‘CHO‘I**Pirniyazova Miyrxan Kuniyazovna – o‘qituvchi**miyrxanpirniyazova@gmail.com*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti***МАХАЛЛА – ОЧАГ ВОСПИТАНИЯ****Пирниязова Мирхан Куниязовна – преподаватель***Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза***MAHALLA – THE CENTER OF UPBRINGING****Pirniyazova Mirkhan Kuniyazovna – teacher***Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz*

Tayanch so‘zlar: maktab, pedagogik, mahalla, oila, bog‘cha, tarbiya, axloq, odob, qoida, farzand tarbiyasi.

Rezyume. Maqolada bolalar va yoshlarni axloqiy tarbiyalashda mahallaning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Unda mahallaning boy an‘anaviy tajribasining oila va jamiyatni uyg‘unlashtirish borasidagi xizmatlari ham muhokama qilinadi.

Ключевые слова: школа, педагогика, махалла, семья, детский сад, воспитание, нравственность, этикет, правила, воспитание детей.

Резюме. В статье рассматривается роль махалли в нравственном воспитании детей и молодежи. Также обсуждаются достоинства богатого традиционного опыта махалли в гармонизации семьи и общества.

Key words: school, pedagogy, mahalla, family, kindergarten, upbringing, morality, etiquette, rules, child rearing.

Summary. The article examines the role of the mahalla in the moral education of children and youth. It also discusses the merits of the rich traditional experience of the mahalla in harmonizing the family and society.

Kirish. Bugungi kunda Prezidentimiz rahnamoligida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida mahallaning rolini kuchaytirish, huquq va vakolatlarini yanada kengaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mahallaning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat va tarbiya qilishi barkamol insonni voyaga yetkazishning negizidir.

Shu bilan birga, mahalla institutining rivojlanishi yoshlar va bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishda, milliy qadriyatlarni, axloqiy me‘yorlarni saqlashda va yangi zamon talablariga moslashishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistondagi keng qamrovli islohotlar orqali mahalla tizimi o‘zining ahamiyatini yanada oshirib, jamiyatni ijtimoiy barqarorlikka erishishida munosib hissa qo‘shishda davom etmoqda. Zero, O‘zbekistonning barkamol va yetuk yosh avlodini tarbiyalash, yurtimizning rivojlanishiga hissa qo‘shish, jamiyatdagi barcha qatlamlar bilan hamkorlikni mustahkamlash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Shu ma‘noda, 2022-yil 19-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-92-son Qarori [1] qabul qilingani bejiz emas. Mazkur qaror asosida yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlari joriy etildi.

Ya‘ni, yoshlar bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish maqsadida har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi. Hozirgi kunda mahallalarda yoshlar yetakchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ular yoshlarning tarbiyasida muhim rol o‘ynamoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mahalla tushunchasi G‘arb va Sharq mamlakatlarida turlicha mazmun kasb etadi. Har ikkala mintaqada mahallaning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati mavjud, biroq uning shakli, vazifalari va roli o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan: Sharq mamlakatlarida mahalla qadimdan jamiyatning ijtimoiy va ma‘naviy hayotida markaziy o‘rin

egallab kelgan. Bu hududlarda mahalla nafaqat ma‘muriy birlik, balki insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar va mehroqibatning timsolidir. Madaniy va diniy vazifalarda esa odatda, diniy va ma‘naviy qadriyatlar o‘chog‘i bo‘lib xizmat qiladi. Masjidlar, madrasalar va boshqa diniy maskanlar mahalla markazi sifatida faoliyat yuritadi. Bundan tashqari birdamlik va yordam masalasida Sharqdagi mahallalarda qo‘shnichilik munosabatlari juda mustahkam. To‘y-marosimlar, janozalar yoki xayriya tadbirlari kabi holatlarda butun mahalla ahlining birgalikda qatnashishi odat tusiga kirgan. Sharq mahallalari yosh avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Katta yoshdagilar yoshlarga nafaqat hayotiy tajribalarni o‘rgatadi, balki ularni ma‘naviyat va axloqiy me‘yorlarga amal qilishga ham undaydi.

G‘arb mamlakatlarida mahalla-g‘arbda mahalla tushunchasi, odatda, kichik jamoalar (community) yoki qo‘shnichilik (neighborhood) shaklida ko‘rinadi. Bu hududlarda mahalla ko‘proq ma‘muriy va jismoniy birlik sifatida qaraladi. G‘arb mamlakatlarida mahalla aloqalari ko‘proq shaxsiy chegaralarga asoslangan.

Qo‘shnilar bir-birini bilishi mumkin, biroq Sharqdagidek yaqin aloqalar odatda kuzatilmaydi. G‘arbda mahallalar ko‘pincha turli xizmatlar (sport markazlari, kutubxonalar, ijtimoiy klublar) orqali birlashadi. Bu xizmatlar odamlarga turli sohalarida rivojlanish imkonini beradi. G‘arb mamlakatlarida mahalla aholisi ko‘pincha ko‘ngillilik asosida jamoatchilik ishlariga jalb qilinadi. Masalan, aksiyalar, xayriya tadbirlari va mahalliy kengashlarda qatnashish. Qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak, Sharq mamlakatlarida mahalla ko‘proq ijtimoiy birdamlikka asoslangan bo‘lsa, G‘arb mamlakatlarida individuallik va mustaqillik tamoyillari ustuvor. Sharqda mahalla yosh avlodni axloqiy va diniy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etsa, G‘arbda esa mahallalar yoshlarga imkoniyatlar yaratib beruvchi infratuzilmani rivojlantirish bilan shug‘ullanadi. G‘arb mahallalari ko‘proq tashkilotchilik va xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Sharq mahallalari insonlar o‘rtasidagi an‘anaviy rishtalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oilaviy tarbiya doimo o‘zining murakab va ko‘p qirraliligi, ajoyib serjiloligi bilan ajralib turadi” deb ta’kidlaydi, A.Munavvarov [3]. Oilaviy tarbiyada oilaning moddiy farovonligi, madaniy-ma’naviy saviyasi, osoyishtaligi, oila a’zolarining soni, tarkibi ham alohida ahamiyatga egadir. Oilaviy tarbiyaning o‘ziga hosligi, shuningdek, u bolalarga ota-ona qarindoshlik avlodajdod hislatlarni o‘rgatadi uning davomiyligini saqlaydi, farzandni shaxs sifatida shakllantiradi, hayotga tayyorlaydi.

Oilada bola tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda mahallaning roli katta.

Qadimdan zamonlardan o‘zbek xalqi mahalla jamoatchiligi bilan birgalikda yashab, oilaviy urf-odat va an’analarni davom ettirib kelgan. Bolalar tarbiyasida jamoaning o‘rni ham katta. Bola bir vaqtning o‘zida turli jamoalarning a’zosi bo‘lishi mumkin, masalan: maktab jamoasi, mehnat brigadasi, sayohatchilar jamoasi. Ushbu jamoalarda bola har xil vazifalarni bajaradi, ulardan o‘ziga xos tarbiya oladi va hayot tajribasini boyitadi.

Bola tarbiyasida mahalla va jamoatchilikni o‘rni dar haqiqat beqiyos sanaladi chunki oldindan halqimizda bir maqol bor "bir bolaga yetti mahalla ota-ona" bu jumla bejizga aytilmagan, chunki o‘sha mahallada tarbiya topayotgan har bir bola mahallaning obro’siuning yuzi hisoblanadi va bola shu mahalla va atrofidagi jamoarchilikdan o‘rnak va tarbiya oladi. Bola tarbiyasi judaham nozik narsa, bola tarbiyasida hatto kichik detallarham tarbiya jarayoniga tasir qiladi. Yevropa mamlakatlarida bolalar xonasi va xonadagi ranglar va kichik detal xona dizayniga ham katta etbor qaratiladi chunki xonadagi muhit va ranglar bola ruhyatiga tasir qiladi. Bola tarbiyasida oila, mahalla va maktabning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishi va to‘g‘ri tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

Mahalla tarbiya maskani bo‘lib unda mehroqibat, ahillik va totuvlik o‘chog‘i bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Buyuk boba kalonlarmz ham tarbiya jarayonida mahalla muhim o‘rin tutishi haqida aytib ketishgan. Alisher Navoiy shunday deydi, "Farzandni tarbiyalash eng avvalo oilaning vazifasi lekin uni bir mahalla, bir xalq, bir el o‘stiradi" [4]. Bola tarbiyasida jamiyat, xususan mahalla bola tarbiyasida katta ahamiyatga ega ekanligini takidlaydi. O‘zbek xalqimizda shunday maqollar bor "Elga qarab bola o‘sar". Bu maqol bejizga aytilmagan bolla albatda atrof muhitdan va atrofidagi odamlardan tarbiya olib katta bolada shuning uchun bola tarbiyasiga hechkim befarq bolmaslik kerak va tog‘ri tarbiya berishimiz kerak bolalarga o‘rnak bo‘lib bolib yashashimiz ularni sog‘lom va komil inson bolib yetishishlari uchun shart sharoitlar yaratib berishimiz va ularni tarbiyasiga qattiq ahamiyat berishimiz zarur.

Natijalar. Mahalla xalqimizning azaliy qadriyatlar, mehr-oqibat va tarbiya maskanidir. Ushbu maskan yoshlarni milliy an’analari, ahillik hamda totuvlik ruhida tarbiyalashda, ularning komil inson bo‘lib yetishishida muhim ijtimoiy institut hisoblanadi.

Mahalla tarbiya o‘chog‘i sifatidagi asosiy jihatlari: [6]

- Qadriyatlar o‘chog‘i: Milliy va diniy qadriyatlar, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi fazilatlar shu yerda shakllanadi.

- Jamoatchilik nazorati: Mahalladagi yoshi ulug‘lar, "oqsoqollar" va "buvilar" yoshlarning xulq-atvorini kuzatib, ularga to‘g‘ri yo‘nalish berishadi.

- Ahillik va totuvlik: Qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari orqali jamoaviylik, o‘zaro yordam va hamjihatlik hissi tarbiyalanadi.

- Ma’naviy maskan: "Oila – mahalla – maktab" hamkorligi orqali yoshlarning tarbiyasi va ta’limi tizimli yo‘lga qo‘yiladi.

Muhokama. Oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yoshlarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, jamiyatda mehr-oqibat va totuvlik muhitini yanada mustahkamlashda mahallaning o‘rni tobora ortib bormoqda. Mahallalarda aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi, oilalarni mustahkamlash, bandlik masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu vazifalarni amalga oshirishda mahallalar qoshidagi komissiyalar hamda keksa avlod vakillari tajribasidan samarali foydalanilmoqda.

"Oila – mahalla – ta’lim muassasasi" hamkorlik mexanizmi, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida ota-onalarning mas’uliyatini oshirish, yoshlarni turli yot g‘oya va illatlardan himoyalashda muhim ahamiyat kasb etayotir. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida "Bola tarbiyasi – kelajak mevasi", "Ilm ol, hunar o‘rgan", "Tanlagan kasbing – sening kelajaging" kabi mavzularda o‘tkazilayotgan tadbir va tanlovlar ham samarali bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, yosh avlodga zamonaviy ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida, yuksak fazilat sohibi etib tarbiyalash katta mas’uliyat talab etadi. Ushbu mahallada bu borada amalga oshirilayotgan ishlar tahsinga sazovor. Jumladan, Mahallalar qoshida tashkil etilgan nuroniylar, ibratli oilalar vakillari, o‘qituvchilar, shifokor va huquqshunoslardan iborat "Ota-onalar universiteti" jamoat tuzilmasi yoshlar ongu shuurini milliy hayot tarzimizga zid va zararli g‘oyalar, "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta’siridan himoyalash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida mahallalarda targ‘ibot ishlari izchil yo‘lga qo‘yilgan. Tadbirlar doirasida ota-onalar va yoshlar bilan alohida suhbatlar tashkil etilib, farzandlarining ta’lim olishi, hunar egallashi zarurligi, erta va yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari atroflicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Mahallalar qoshida tashkil etilgan xotin-qizlar bilan ishlash hamda voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyati ham bu boradagi tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilayotir.

O‘zbekistonning ijtimoiy-ma’naviy rivojlanishida mahalla institutining o‘ziga xos o‘rni bor. U qadimdan xalqimizning turmush tarziga singib ketgan va ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Mahalla – nafaqat yashash hududi, balki o‘zining o‘ziga xos ma’naviy va ijtimoiy mohiyati bilan jamiyatning barqarorligi, uyg‘unligi va taraqqiyoti uchun zarur tizim hisoblanadi.

Mahalla, xususan, jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlarning saqlanib qolishida va uning muhim ijtimoiy, ma’naviy ahamiyatini kuchaytirishda katta rol o‘ynaydi. Har bir hududda, ayniqsa, qishloq joylarida mahalla o‘zining qadimiy an’analari, urf-odatlar bilan jamiyatni shakllantirishda katta o‘rin tutadi.

Bugungi kunda mahalla bolalar tarbiyasida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla faqat jismoniy tarbiyani emas, balki ma'naviy, ijtimoiy va axloqiy tarbiyani ham ta'minlaydi.

Mahallaning bolalar tarbiyasidagi roli nafaqat an'analarga tayangan holda, balki jamiyatdagi yangilanishlarga ham mos ravishda amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekistonning yangicha siyosati va islohotlari, ayniqsa, mahalla tizimining rivojlanishi va yosh avlodni tarbiyalashda o'zining alohida o'rnini ko'rsatdi.

Mahalla – tarbiya maskani hamdir. Mahallada ulg'ayayotgan har bir bolaning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'ul hisoblanadi. Shuning uchun ham «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» kabi naqlar bejiz paydo bo'lmagan.

O'zbekiston bola huquqlarini yanada takomillashtirish maqsadida o'zining xalqaro majburiyatlariga, jumladan, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq qabul qilingan majburiyatlarga sodiq bo'lib kelmoqda. Mazkur siyosatni takomillashtirishda BMT konvensiyaviy organlari, YUNISEF va xalqaro ekspertlarning tavsiyalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Bola huquqlari bo'yicha qo'mitaning 2022-yil bo'lib o'tgan 91-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalari bajarilishi yuzasidan Beshinchi davriy hisobotini ko'rib chiqish yakunlari yuzasidan taklif va tavsiyalarida bolalarni tarbiyalashning ijobiy, zo'ravonliksiz va ishtirokchi shakllarini, oilada, mahallada va maktabda intizom va munosabatni o'zgartirishga ko'maklashish, shu jumladan, xabardorlikni oshirish lozimligi ta'kidlangan.

Mazkur tavsiyalarni amaliyotga tatbiq qilish maqsadida mamlakatda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllarini bartaraf etish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda [2].

Birinchidan, 2023-yil 11-aprel kuni “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun qabul qilingani alohida ahamiyat kasb etganini qayd etish ayni muddaodir.

Qonunda oilaviy va maishiy zo'ravonlik uchun, ta'qib qilish, shahvoniy shilqimlik, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlaganlik uchun javobgarlik ko'z tutilgan. Ayni chog'da, ayollarni jinsiy aloqa qilishga majbur etish, turmush qurishga majburlash yoki to'sqinlik qilish uchun yarashish institutini qo'llamaslik ham belgilangan.

Shu bilan birga, joriy yilning 2024-yil 14-noyabr kuni “Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya

qilish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Qonun bilan bolalarga nisbatan zo'ravonlik shakllariga berilgan ta'riflar soni uchtdan (jismoniy, jinsiy, psixologik) oltitagacha (g'amxo'rlik qilmaslik, ekspluatatsiya, bulling) kengaytirildi.

Qonun bilan ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning javobgarligi oshirildi. Xususan, ular bolalarning hayotini asrash, ularga g'amxo'rlik qilish, mehr-muhabbat ko'rsatish va sog'liqqa zarar yetkazuvchi axborotlardan himoya qilishlari hamda tarbiya usullari dag'al, shafqatsiz bo'lmasligi, inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yo'l qo'ymasligi belgilandi.

Ikkinchidan, aholining bola huquqlari to'g'risidagi xabardorligini oshirish tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturida aholining bola huquqlari bo'yicha xabardorligini oshirish tadbirlari belgilandi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida «Inson huquqlari», «Ayollar huquqlari», «Bola huquqlari» o'quv kurslari joriy etildi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75-yilligiga bag'ishlangan tadbirlar doirasida fuqarolarning bola huquqlaridan xabardorligini oshirish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 2023-yil 1-10-dekabr kunlari “Inson huquqlari” o'n kunligi tadbirlari o'tkazilib, mamlakatdagi umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalarida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlangan umummilliy dars o'tkazildi.

Bundan tashqari, 2024-yil aprel oyida BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilinganligining 35-yilligini nishonlashga bag'ishlangan tadbirlar dasturi qabul qilindi. Uning doirasida bola xuquqlarini ta'minlash to'g'risida aholi xabardorligini oshirishga qaratilgan targ'ibot, ma'naviy-ma'rifiy, o'quv, ilmiy va ommabop tadbirlar tashkil qilinmoqda [6].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mahalla – yosh avlodni barkamol tarbiyalashda muhim rol o'ynaydigan ijtimoiy maskan. U milliy qadriyatlarni asrash, yoshlarni ma'naviy va jismoniy rivojlantirishda asosiy institut sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, mahalla institutining takomillashuvi va uning zamonaviy yondashuvlarga moslashishi, uning yoshlarni tarbiyalashda yanada samarali vositaga aylanishini ta'minlaydi. Mahalla tizimi, o'zining yangi yondashuvlari bilan, nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo bo'ylab yoshlarni rivojlantirishga va jamiyatning barqarorligini ta'minlashga hissa qo'shishi tayin.

Mahalla yoshlarni ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom va ijtimoiy faol bo'lib kamol topishida poydevor vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvarda “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-92-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 1993-yilda qabul qilingan "Oila mahalla va maktab hamkorligi konsepsiyasi".
3. Ishanova M. Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma. – Andijon: ADU, 2019.
4. Djurayeva S.N. Turdiyeva N.S. Baxranova A.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Fan va ta'lim, 2002.
5. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
6. Xolmamatov H. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi Inson huquqlari sohasidagi tahlil va tadqiqotlar bo'limi bosh mutaxassisi nutqi.